

MILLIY QADRIYATLARIMIZ BO‘LMISH MILLIY KURASHNING MANBALARDA YORITILISHI TARIXI

Eshboyev Shaxriyor Furqat o‘g‘li

Jizzax davlat pedagogika universiteti “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazaryasi va metodikasi mutaxassisligi” II bosqich magistranti

E-mail: eshboyevshaxriyor55@gmail.com

Dungalov Toshtemir Shukurullayevich

Jizzax davlat pedagogika universiteti “Jismoniy tarbiya va sport mashg‘ulotlari
nazaryasi va metodikasi mutaxassisligi” II bosqich magistranti

Annotatsiya: Ushbu maqolada o‘zbek milliy kurashning rivojlanish tarixi manbalarga asoslanib bayon e‘tilgan. Shuningdek, milliy kurash sportining inson va jamiyat uchun ahamiyati ochib berilgan.

Kalit so‘zlar: Milliy kurash, milliy kurashning rivolanish tarixi, pahlavonlar, kurash , bellashuvlar, To‘marish, Baqtriya Surxon, Nurota, Chelak, Alpomish.

HISTORY OF COVERAGE IN SOURCES OF THE NATIONAL STRUGGLE FOR OUR NATIONAL VALUES

Abstract: This article describes the history of the development of Uzbek national wrestling based on sources. Also, the importance of national wrestling sport for people and society is revealed.

Key words: National wrestling, history of development of national wrestling, wrestlers, wrestling, competitions, Tomarish, Baktriya Surkhan, Nurota, Chelak, Alpomish.

Butun jahon nigohiga tushib, dovrug‘ va shuhrat qozonayotgan, millionlarni uziga mahliyo etgan Milliy kurash ham jahonning yuksak ma’naviy qadriyatlaridan biri sifatida o‘zining chuqur tarixiy ildizlariga egadir. Surxon, Zarafshon vohalari hamda Farg‘ona vodiysining bir qator qadimgi aholi manzilgohlarida aniqlangan noyob topilmalar, asori atiqqlari, qoyalarga bitilgan tasviriy san’at namunalari ham bunga to‘liq shohidlik beradi. Kurashimiz tarixini ilmiy isbotlab beradigan 6 ta topilma-ashyoviy dalillar mavjud. Chunonchi, Panjikentdan topilgan kurashayotgan ikki pahlavonning devoriy rasmi Sug‘diyona davlatchiligiga, ya’niy o‘rta asrlar davriga oid noyob yodgorlik sanaladi. Shunday ashyolardan biri silindr shaklidagi sopol idish bo‘lib, u qadimgi Baqtriya (Janubiy O‘zbekiston) hududidan topilgan. Uning bir parchasida ikki kurashchi va ulardan birining o‘z raqibini oyog‘idan chalayotgani tasvirlangan. Bu idishlar bronza davriga oid bolib, kurashchilarning tarixi yana ham ko‘proq, ya’ni 3,5 ming yil ekanligidan guvohlik beradi. Navbatdagi topilma bronza davriga oid ikkita ot ta’qasidir. Kurash usullari tasvirlangan har ikkala taqa, professor M.P.Gryaznovning yozishicha, sak-skif qabilalarlning ma’naviy qarashlari ro‘hida ishlangan bo‘lib, ko‘chmanchilik davrining dastlabki bosqichlariga oiddir, Milodiy birinchi ming yillikning o‘rtalariga oid kumush cho‘mich gardishi sirtida ham ikki pahlavonning kuraslichimizga xos olishayotgan holati tasvirlangan. Samarqand yaqinidagi Chelak qishlog‘idan topilgan ashyolar uning dastasi sirtida ikki polvon huddi O‘zbek kurashi usulida olishayotgani ifodalangan. Mazkur topilma ilk o‘rta asrlar davriga oiddir. Etnograflarni tadqiqotlariga ko‘ra, eng qadimgi doston, ertak va rivoyatlarda ham kurash haqida lavhalar uchraydi[1]. Bundan kelib chiqadiki, O‘zbek kurashining tarixi 5 ming yil oldingi moziyga borib taqaladi. M.O.Kasvening 1980 yilda chop etilgan «Iptidoiy madaniyat tarixi» nomli asarida yozilishicha, matriarxat munosabatlar davrida nikoh ko‘pincha erning emas, balki ayol tashabbusi bilan tuzilgan. Zamonlar o‘tishi bilan mazkur an’ana shakli o‘zgargan. Endigina paydo bo‘la boshlagan patriarxat munosabatlarga qarshi ziddiyatlar ayni shu jarayonda yuzaga kelgan. Keyninchalik esa qizlar o‘zoro yakkama-yakka jangda yengan yigitga turmushga chiqqanlar[2]. Xalq og‘zaki ijodi asarlari orasida “Alpomish” dostoni

alohida o‘rin egallaydi. Dostonda polvonlarning bellashuvi, ularning tezkorlik, kuchlilik, chaqqonlik, chidamlilik, botirlik kurashish usullarini qo‘llay bilish sohasida musobaqalashuvi badiiy shaklda tasvirlangan. Alpomishda tasvirlangan kurash manzarasidan kurashchilar maxsus kiyim va belbog‘iga ega bo‘lganligini, kurash vaqt jihatidan cheklanmaganini, raqibini belbog‘idan ushlab olish asosiy usul hisoblanganligini ko‘rish mumkin. Keltirilgan misollardan shu narsa ayon bo‘ldiki, demak, bundan ming yillar avval ham O‘zbekiston hududida usullar tasnifi va tizimi yetarlicha rivojlangan va shakllangan. O‘zbek xalqi qadimdan kurashni insonni jismoniy tarbiyalash vositasi deb qaragan[3]. Xalq o‘zida kuchlilikni, chidamlilikni, iroda va botirlikni mehnatkash xalqning axloqiy sofligini mujassamlashtirgan kurashchi-polvonlarga hurmat bilan munosabatda bo‘lgan. Diniy va oilaviy bayramlarda, ba‘zan esa odatdagi kunlarda ishdan bo‘sh vaqtlarda kurash musobaqalari o‘tkazilgan. Bu musobaqalar Navro‘z bayrami kunlari keng avj olib, ommaviy xalq chempionati sifatida o‘tkazilgan. Bellashuvlarda turli shahar va qishloqlardan kelgan kurashchilar ishtirok etgan. Kurashchilar juftini tanlashda ularning vazni ko‘z bilan chamalab aniqlangan. Bellashuv oldidan kurashchilar oyoq qo‘llar chigilini yozish mashqlari sifatida gavnani uqalash, silash kabi mashqlarni qo‘llaganlar. Kurashchilar an‘anaviy kiyimda musobaqalashgan[4]. Hududlar miqyosida Buxoro, Xorazm, Samarqand, Qashqadaryo, Surxandaryo, Jizzax viloyatlari va Qaraqalpog‘iston Respublikasi hududlarida Buxorocha kurash yaniy Kurash, Farg‘ona vodiysi, Toshkent, Sirdaryo viloyatlari hududlarida Farg‘onacha kurash, ya‘ni belbog‘li kurash bilan doimiy ravishda shug‘ullanib kelishgan. To‘y marosimlarda musobaqalashib kuch sinashganlar. Xalq orasida polvon degan nomga sazovor bo‘lishgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Yusupov K. Kurash xalqaro qoidalari, texnikasi va taktikasi. – Toshkent, 2005.
2. Salomov. R.S. “Sport mashg‘ulotlarining nazariy asoslari” O‘zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti Toshkent 2005 yil.238-bet
3. Goncharova O.V. Yosh sportchilarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirish Toshkent., O‘zbekiston Davlat jismoniy madaniyat instituti 2005 yil - 171 b.
4. Azizov. N.X Belbog‘li turkiston kurashi. Toshkent: O‘qituvchi 1998.

